



O'ZBEK MILLIY RAQS SAN'ATI: FAG'ONA VA XORAZM RAQS MAKTABLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qurbanova Feride

ÓzMKÓMI NF “Xalıq dóretiwshiligi” kafedrası

“Qosiq hám oyin” qaniyeligi 2-kurs student

Yuldasheva Zuxra Saliyevna

ÓzMKÓMI NF “Xalıq dóretiwshiligi” kafedrası oqituwshisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy raqs san'ati tarixi, rivojlanishi, tarqqiyot bosqichlari, raqs san'ati maktablari va hududlaro milliy liboslarimizning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, raqs san'atini rivojlantirish bo'yicha oshirilayotgan keng ko'lamlı ishlar, milliy raqs san'atining jahon hamjamiyati tomonidan e'tirof etilayotganligi keng bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nomoddiy, madaniyat, lazgi, raqs maktabi, harakat, marosim, tadbir, festival, raqqosa, san'at, ma'naviy-madaniy.

Qadim zamonlarda vujudga kelishi haqida arxeologik qazilmalar jarayonida topilgan raqqos va raqqosalarning haykalchalari, qadimiylar g'orlar va qoyatoshlarga chizilgan tasvirlar, kitob miniatyuralari dalolat beradi. Jahon sivilizatsiyasi rivojlanishi bilan raqs san'ati ham rivojlanib boraverdi. O'zbek raqs san'atining o'zida turli maktablar, yo'naliishlar vujudga keldi va mahalliy raqlar taraqqiyot tufayli milliy raqs maqomigacha o'sib bordi. Raqs san'ati ayniqsa, Sharq Renessansi, ya'ni Amir Temur va temuriylar davrida ravnaq topdi. Unda ayniqsa xotin-qizlarning o'rni katta bo'ldi. Raqlarda rang-baranglik tarixiy qatlamlar yaqqol ko'zga tashlanib turdi. Keyinchalik ham raqs fidoyilar tufayli o'zbek milliy raqsi rivojlanishda davom etdi va hozirgacha saqlanib qolgan holda ajoyib raqlar vujudga keldi. Raqsning eng qadimiylar shakllari - bu xali tom ma'nodagi raqs emas, - balki ibtidoiy shakllari ya'ni ritmik pontamimo faqat xalq ijodiyoti emas, balki masxarabozlar milliy an'anaviy professional teatr artistlari repertuarida ham saqlanib qolgan. Raqs professional raqqosalalar va sozandalar maxsuli bo'lib, oliy shakllari professional raqqosalar repertuarida shuningdek professional raqqosalarga taqlid qiluvchi raqs xavaskorlari doirasida saqlanadi va rivojlanadi. Mustaqillik sharofati bilan o'zbek milliy raqsi ham gurkirab, rivoj topmoqda. O'zbek xalqi chinakam boy raqs san'ati merosiga ega. O'zbek raqsining butun boyligi serjilo qirralari, go'zalligini saqlash, olamga taratish uchun imkoniyatlar paydo bo'ldikim bu istiqlol mevasidir, sharofatidir. Bizgacha yetib kelgan raqlarning tur va janrlari rang-barangligi xayratda qolarli darajada. Avlodlar asrlar osha to'plagan ma'naviy boylikni o'quvchilarga me'ros qilib qoldiradilar Raqs - insoniyat paydo bo'lgan ilk davrlardayoq tug'ilgan va san'atning eng qadimgi, keng tarqalgan va ommabop turlariga kiradi. Qadimdan inson hayotining muhim jabhalarida raqs



alohida o'rin tutgan. Ibtidoiy davrda insonlar tomonidan tabiat hodisalari (quyosh, suv, olov bilan bog'liq) turli afsonaviy ko'rinishlarda tushunilgan. Tabiat mo'jizalari insonlarga yaxshilik yoki yomonlik keltiruvchi kuch sifatida tasavvur qilingan.

Farg'ona raqs maktabi.

Farg'ona raqs maktabi – Farg'ona vodiysida shakllanib kelayotgan raqs san'ati. Qaddi-qomatni erkin tutish, yengil va ifodali yurishlar, puxta ishlangan va aniq ma'noga ega bo'lgan qo'l, bilak, barmoq harakatlari Farg'ona raqsining asosini tashkil etadi. Bu raqsdan 1 ta erkin, 7 ta qo'l va 7 ta oyoq holatlari o'rgatiladi.

Ushbu holatlar o'zlashtirilganda so'ng 5 qismdan tashkil topgan, Doira dars"ining harakatlari o'rgatiladi. Yigitlarning raqlarida mardonavor harakatlari, aylanishlari, qizlarning raqlarida esa jilvalar yetakchilik qiladi. Farg'ona raqsi asosan maydonlarga mo'ljallangan „Katta o'yin" va mehmonxonalar va hovlilarda ijro etiladigan „Mayda o'yin" turkum raqlaridan tashkil topgan. „Katta o'yin" raqs vositalari bilan syujet voqealarini aks ettirgan 280 usulni o'z ichiga olgan. Masalan: rez, titratma, shox, gul, o'yin, yo'rg'a, sarbozi, charx, rog, katta, samo, yallama, qaytarma, olmaanor kabi usullar bizgacha yetib kelgan. „Mayda o'yin" esa yalla va laparlar jo'rligida ijro etiladigan raqlardir. Farg'ona raqqos yigitlari surp va beqasamdan tikilgan yaktak va kamzullar, shoyi sholvorlar, belbog' va do'ppilar, o'tkir uchli maxsus rangdor etiklardan, raqqosa qizlari esa xonatlas, olacha ko'ylaklar, nimchalar, lozimlar, kovush-maxsilar, ro'mollar, durralar, xilma-xil taqinchoqlardan foydalanishadi. Farg'ona raqs maktabini rivojlantirishda Usta Olim Komilov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Roziya Karimova, Gavhar Rahimova, Qunduz Mirkarimova, Dilafro'z Jabborova, Ma'mura Ergashevalarning xizmatlari beqiyosdir.

Xorazm raqs maktabi.

Xorazm raqsi - o'zbek xalq raqmaktabining biri. Xorazm necha asrlardan buyon o'z buyukligini saqlab kelgan va tarix sahifasidan joy olgan o'lkdir. Xorazmda paydo bo'lgan ilk raqlar diniy marosimlar bilan bog'iil bo'lgan. Qadimiy Xorazm o'yinlari to'g'risida Avesto Kitobida anchagina ma'lumotlar berilgan. Xorazm raqsida yigitlarda qo'llar cho'zilgan, tirsaklar ba'zan to'g'ri, ba'zan tirsakdan egilgan bo'lib, barmoqlar yuqoriga, pastga, kaftlari yonga, yuqoriga, pastga qaratiladi. 73 Gavdaning beldan yuqori qismi orqaga tashlanganroq, kuraklar bir-biriga yaqin, tizzalar biroz egik, oyoq uchlari yonga ochilganroq bo'jadi. Yigitlar ustiga to'q rangli kamzul, boshlariga chugurma kiyib o'ynaydilar. Xotinqizlarda rasmiy holatda barmoq uchlari pastga qaratiladi, tirsaklar biroz bukiladi, bilaklariga zang (mayda qo'ng'iroqchalar) taqib o'ynaydilar. Boshlaridagi ukki, o'rdak gajagi {bosh kiyimning chap tomoniga, y a 'ni yurak tarafga taqilgan. Bu yurakdan chiqqan olov timsolini anglatadi) bezakli, dudorli, popukli, parli taqyatuzi, peshonalariga bog'langan manglay tuzi, ko'kraklariga osilgan shavkalalar, quoqlaridagi sirg'alar, bilaklaridagi bilaguzuklar ham raqs usullariga mos tushib,



umumiy raqs obrazini yaratishga xizmat qiladi. Raqs jarayonida barmoqlami qarsillatib, g'oz turib

o'ynash, gavda, qo'l dastalami titratish, yelka qoqish, cho'kka sakrash, qayroqlarda usul berish ayollar va erkaklar raqsiga birday xos. Xorazm raqsi harakatlarga boy. Bizgacha yetib kelgan «Chag'alloq», «Norim-norim», «Aliqambar», «Orazibon», «Mo'ri», «Xo'bbimboy», «Shirinnowot» o'yinlari ijrosida o'g'lon raqqoslardan masxarabozlar o'zini ko'rsatgan bo'lsa, «Ashshadaroz», «Maqom ufori» kabi raqlarda raqqoslardan ustunlik qilgan. «Lazgi» raqs turkumi ijrosida erkak va ayol raqs ustalari birday mahorat bilan o'ynaydilar. Xorazmda «Lazgi»ning 9 xili mavjud: "Olov", "Dutor", "Qayroq", "Masxaraboz", "Garmon", "Surnay", "0 'g'lon bola", "Xorazm lazgisi", "Zamonaviy lazgi"lar. Eng mashhur Onajon xalfa Sobirova (Anash cho'loql 885-1952) xalfa tomoshasi tarkibini saqlash, garmon chalish va kuylash, raqqoslarni o'ynatishda, ayniqsa, xotin-qizlar raqsini sahnaga olib chiqishda katta xizmat qilgan. Soraxon Ollaberganova, Reymajon Temirova, Raviya Otajonova, Oliya Otamurodova, Rahima Hakimovalar Onajon xalfa ansambli ishtirokchilaridir. Xorazm raqsi ijobi uslubini, an'analarini, yangi ijtimoiy sharoitlarda saqlash va rivojlantirishda Bekjon Madrimov, Sulton Otaniyozov, Reyim ota, Qambar bola, Qodir bola, Kanarak bola Saidov, Jummi shix, Qodirbergan Otajonov, Karim Ollaberganova, Rimajon Matkarimova, Matlatif 74 Saidov, Zarif Latifov, Xudoybergan to'qto'q, Gavhar Matyoqubova va boshqalaming xizmatlari katta o'rinni egallaydi. Xorazm raqsi uslubi Xorazm viloyat teatri, xalq ansambllari, «0 'zbekraqs» birlashmasi tasarrufidagi «Lazgi» ansambli faoliyatida davom etib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. R. Dosmetova N. Abraykulova, Raqs" Toshkent-2017.
2. L. Avdeyeva „O'zbek raqsi tarixidan" Toshkent-2001.
3. R. Karimova „O'zbek raqslari" Toshkent-2003.
4. Avdeyeva L.A. O'zbek Milliy raqsi tarixidan. - Toshkent:Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "O'zbekraqs" milliy raqs birlashmasi,2001y
5. Sayfullayeva D, Kazakboyeva Z. O'zbek raqs san'ati tarixi va raqs sahnalashtirish sirlari. Toshkent.2006y

